

SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIYNING HAYOTI VA ILMUY FAOLIYATI

Abdunabiiev Sunnat Ne'mat o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk mutasavvif va islom olimi Sayyid Burhoniddin Termiziyning hayoti, ilmiy merosi va tasavvufiy qarashlari o'rganiladi. U Imom Termiziy yurti bo'lgan Termizda tug'ilib, keyinchalik Markaziy Osiyo va Xurosonda mashhur bo'lgan. Sayyid Burhoniddin mashhur so'fiy Jaloliddin Rumiya ta'sir ko'rsatgan ustozlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy faoliyati asosan tasavvuf, fiqh va axloqiy tarbiya sohalarini qamrab olgan.

Kalit so'zlar: Sayyid Burhanuddin Termizi, tasavvuf, ilmiy meros, Termiz, Rumi, axloq, fiqh.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается жизнь и научная деятельность великого исламского учёного и суфийского наставника Сайида Бурханиддина Термизий. Родившись в Термезе, он стал одной из выдающихся духовных фигур в Центральной Азии и Хорасане. Особое внимание уделяется его вкладу в развитие суфизма, а также его влиянию на Джалаляддина Руми. Его труды охватывают такие области, как суфизм, исламская этика и фикх.

Ключевые слова: Сайид Бурханиддин Термизий, суфизм, научное наследие, Термез, Руми, исламская этика, фикх.

ABSTRACT

This article explores the life and scholarly contributions of the renowned Islamic mystic and scholar Sayyid Burhanuddin Termizi. Born in Termez, he became a prominent spiritual figure in Central Asia and Khorasan. He is known as one of the influential teachers of Jalal al-Din Rumi. His works mainly focus on Sufism, Islamic ethics, and jurisprudence, reflecting a deep intellectual and spiritual legacy.

Keywords: Sayyid Burhanuddin Termizi, Sufism, scholarly heritage, Termez, Rumi, Islamic ethics, fiqh.

KIRISH

Sayyid Burhoniddin Termizi O'zbekistonning janubida, Afg'oniston bilan chegaradosh hududda, Amudaryo va Surxondaryo daryolari tutashgan joyda, hozirgi Yangi Termiz shahrining biroz g'arbida xarobalari saqlanib qolgan qadimgi Termiz shahrida hijriy 561 (milodiy 1165–1166) yilda tug'ilgan. O'sha davrda Termiz shahri yetishtirgan ko'plab olimlari bilan ilm, san'at va madaniyat markaziga aylangan edi.

Ana shu shaharda yetishib chiqqan Sayyid Burhoniddin bilan bir qatorda, Abu Abdulloh Muhammad al-Hakim Termiziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra kabi mashhur olimlarni ham sanab o'tish mumkin.

Mavlaviya tariqatiga oid tarixiy manbalarda Sayyid Burhoniddin quyidagicha ulug'langan: "Avliyolar va haqiqat izlovchilarning tojidir, pok va orif kishilarning mohiyati, nozik masalalarni chuqr tahlil qiluvchi, kashf va sirlarning egasi, Allohga bo'lgan tavakkul va barqarorlikda mustahkam, ilohiy ma'rifatda jo'shqin bir ummon" — degan yuksak ifodalar bilan eslangan.

Qaysariya shahrida vafot etgan va o'z nomi bilan ataluvchi qabristonda maqbarasi joylashgan Sayyid Burhoniddinning hayoti haqida aniq va keng qamrovli ma'lumotlarga ega emasmiz. Hatto uning otasi va onasining ismlari ham bizga noma'lum. U haqidagi ma'lumotlar ba'zi manoqib (avliyo hayotini bayon qiluvchi) kitoblarda keltirib o'tilgan. Uning hayoti haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manbalar — Mavlono Jaloliddin Rumiyning o'g'li Sulton Valadning (vaf. 1312-yil) "Ibtidonom" nomli asari [5], Faridun ibn Ahmad Sipohsolorning (vaf. 1312) "Risola"si [3] va Mavlono Jaloliddin Rumiyning nabirasi Ahmad Aflokiy (vaf. 1360) tomonidan yozilgan "Manoqibul orifin" [1] asarlaridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sayyid Burhoniddin haqiqat sirlarini chuqr o'rganib, tekshirganligi uchun "Muhaqqiq" (haqiqatni izlovchi) deb atalgan. U inson qalbidan o'tayotgan yashirin sirlarni kashf yo'li bilan bilganligi sababli unga "Sayyidi Sirdon" (Sirlar sayyidi) laqabi berilgan. Bu borada Sulton Valad shunday deydi:

"Hech kim unga biror narsa aytmagan bo'lsa ham, u hamma narsani bilardi, har bir kishi unga ayon edi, chunki u olamda yagona edi". Sayyid Burhoniddinning nasabi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi bo'lgan Hazrat Husayn (r.a.) avlodidan bo'lgani sababli "Sayyid" va "Husayniy" nisbasini olgan. Ba'zi manbalar bu nisba ta'sirida uning ismini Husayn deb ham qayd etganlar. Uning shayxlari orqali Hazrat "Ali (r.a.)"ga yetuvchi ikki xil tasavvufiy silsila (tariqat zanjiri) tuzilgan [5].

Sayyid Burhoniddin Termiziy ilm markazi bo'lgan Termiz shahrida dastlabki tafsili otasidan olgan. Keyinroq ilmga bo'lgan ishtiyoqi tufayli Balx shahriga yo'l olib, u yerda Mavlono Jaloliddin Rumiyning otasi — Sultonul ulamo Bahouddin Valad (vaf. 628/1231)ning shogirdi bo'lgan. U zotdan 12 yil davomida moddiy va ma'naviy ilmlarni o'rgangan va uning muridi bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Sayyid Burhoniddin yoshligida Sultonul ulamoga 40 kun xizmat qilganidan so'ng, valiylikning eng yuksak darajasiga yetgan. Bahouddin Valad hali o'g'li Muhammad Jaloliddin kichkina bo'lgan paytda, uning tarbiyasi va ta'limini Sayyid

Burhoniddinga topshirgan edi. Shu tarzda Sayyid Burhoniddin Mavlono Jaloliddin Rumiyning tarbiyachisi va murabbiyi vazifasini bajargan [5].

Sayyid Burhoniddin ta'lif olgan Balx shahri qadimiy sivilizatsiyalar markazi bo'lib, turkiy va fors madaniyatlarining uchrashuv nuqtasi sanalgan. XIII asr boshlarida Balx Xurosonning eng muhim ilm-fan, san'at va madaniyat markazlaridan biri bo'lib, Vizantiya bilan Xitoy oralig'idagi qadimgi ipak yo'li ustida joylashgan savdo markazi edi. Boshqa tomondan, bu qadimiy Balx shahri turli dinlar va e'tiqodlar, falsafa va tasavvuf yo'nalişlarining uchrashuv va qarama-qarshilik maydoniga aylangan edi. Aynan shu yerda islom tasavvufi rivojlangan va u Markaziy Osiyodagi eng yirik tasavvufiy markazlardan biri sifatida tan olingan. Bu davrda Balx shahri Xorazmshohlar sulolasidan Muhammad Takash boshqaruvi ostida edi. Ammo hukmdor xalqning Bahouddin Valadga (Mavlononing otasi) haddan tashqari bog'lanib qolganligidan shubhalana boshladi. Bu borada Sulton Valad shunday yozadi: "U (Bahouddin Valad) abadiy Sulton edi, Balx xalqidan qalbi ranjidi". Biroq aynan qanday voqeа bunga sabab bo'lgani ochiq aytilmagan [4].

Bu yerda "xalq" deganda, ehtimol, hukmdorning tarafdarlari nazarda tutilgan, chunki aksariyat xalq unga juda katta hurmat va muhabbat bilan qarardi. Bahouddin Valadning 1214-yilda Balxni tark etishiga boshqa sabablar ham ko'rsatilgan bo'lsada, bu boradagi asosiy sabablar quyidagilardir: Mo'g'ullar bosqini va ularning shafqatsizligi, qon to'kishlari — bu holat ko'plab olim, shoir va san'atkirlarning o'z yurtlarini tark etishlariga sabab bo'lgan.

Balxda tanilgan olimlar — Faxriddin Roziy, Sulton Muhammad Takash va boshqalar yunon falsafasidan ta'sirlangan, aqlga asoslangan fikrga suyanadigan bir qarashni ilgari surar edilar. ularning qarashlariga ko'ra, haqiqatga faqat aql orqali yetishish mumkin edi. Tasavvuf ahli esa, aksincha, haqiqatga faqat ilohiy jazba, ya'ni ilhom bilan yetishish mumkin, deb hisoblar, bunga erishish uchun esa riyozat, ya'ni nafsnii tiyish va ruhni poklash kerakligini ta'kidlashardi. Ana shu qarama-qarshi fikrlar Bahouddin Valad bilan Faxriddin Roziy o'rtaida ziddiyat paydo bo'lishiga sabab bo'lgan [3].

Sayyid Burhoniddin Sultonul ulamodan oldinroq Balx shahrini tark etib, o'z vatani bo'lgan Termizga qaytadi va u yerda yolg'izlik (uzlat) hayotini kechira boshlaydi. Milodiy 1231-yilning (Hijriy 628-yil) Rabiul oxir oyining 18-kuni, nasihat berar ekan, shunday deydi:

"Voy, voy! Mening ustozim bu foni dunyoni tark etib, pok olamga rihlat qildi!"

Bu so'zlari bilan u ustozining vafotini kashf (ilohiy ilhom) yo'li bilan bildirgan. Keyinchalik uning aytgan kuni Bahouddin Valadning aynan vafot etgan kuni ekani aniqlanadi. Sayyid Burhoniddin bu xabarni eshitib, ko'p yig'laydi, g'am va motam

tutadi. Ustozini tushida ko‘radi. Tushda Bahouddin Valad unga qattiq ohangda shunday deydi: “Burhoniddin! Mening Jaloliddinimni (ya’ni Mavlononi) yolg‘iz qoldiribsan, uni himoya qilishda loqaydlik qilyapsan!”. Bu tush va kashfiyotni boshidan kechirganidan so‘ng, Sayyid Burhoniddin Termiziy bir nechta yaqinlari bilan yo‘lga chiqib, Konyaga yo‘l oladi. U Konya shahriga yetib kelganida ustozining vafotidan bir yil o‘tgan edi. Bu orada Mavlono otasining vafotidan qattiq iztirob chekib, onasi va ukasining qabri joylashgan Laranda (bugungi Karaman) shahriga ketgan edi. Sayyid Burhoniddin Konya shahrida bir necha oy davomida Sinjar masjidida uzlat hayotini kechiradi. So‘ngra Mavlonoga maktub yozib, uni Konya shahriga chaqiradi. Mavlono bu maktubni olgach, behad quvonadi va shunday deydi: “Davlat (baxt) daraxtining shoxida sizga o‘xshagan bir gul yetishishi uchun ming yillar kerak bo‘ladi!”. Bu so‘zlar Mavlononing ustoziga bo‘lgan chuqrur hurmat va muhabbatini ifodalaydi [2].

Sayyid Burhonuddinning vafot sanasi borasida aniq ma’lumot bo‘lmasa-da, “Ibtidonom” va Aflokiyda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra u Bahouddin Valadning vafotidan bir yil o‘tib Konyaga kelgan, Mavlonoga to‘qqiz yil shayxlik qilganiga qarab, 638 (1241) yil oxiri yoki 639 (1241) yil boshlarida vafot etgan deb aytish mumkin. Aflokiyning rivoyatiga ko‘ra, Sohib Isfahoniy uning qabri ustiga maqbara qurmoqchi bo‘lgan, biroq tushida ko‘rgan Sayyid Burhonuddin bu niyatni rad etgani sababli u bundan voz kechgan. Hozirgi maqbara 1892-yilda Ankara voliysi Obidin posho yordami bilan Qaysariya mutasarrifi Mehmed Nozim posho tomonidan qurilgan [5].

“Maorif” nomli asarida shayxi Bahouddin Valadni maqtov bilan yod etgan Sayyid Burhonuddin uni eng oliy valoyat darajasida deb bilganini, Mavlononing undan yuqori darajaga chiqishini istab duo qilmaganini, chunki undan yuqoriroq daraja yo‘qligini bildirgan. Mavlono Jaloliddin Rumi esa “Oldinga yur, o‘zingni buzilishdan qutqar. Yurgin, Burhonuddin Muhaqqiq kabi nur bo‘l. O‘zingdan qutuldingmi, burhon bo‘lsan. Banda yo‘q bo‘lsa, sulton bo‘ladi” mazmunidagi baytida ustozining ilohiy xalifa maqomiga yetganini, shayxlar kitoblarini va sirlarini mutolaa qilgan bo‘lsa ham, xalqqa ta’sir qilish kuchining ko‘p mujohada va riyozatlar tufayli paydo bo‘lganini bildiradi. Mavlononing o‘g‘li Sulton Valad ham undan fayz olganini bayon etadi.

XULOSA

Sayyid Burhoniddin Termiziy — XIII asrning yirik mutasavvif olimlaridan biri bo‘lib, shoir Jaloliddin Rumiyning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. U ilm-fan, tasavvuf yo‘lida chuqrur bilim va tajribaga ega bo‘lib, o‘zining faoliyati orqali Rumiya katta ta’sir ko‘rsatdi. Sayyid Burhoniddinning “Maorif” asari uning

tafakkuri, ruhiy kechinmalarini va tasavvufiy qarashlarini mujassam etgan muhim manbadir. Sayyid Burhoniddinning hayoti — ilm, ruhiy kamolot sari intiluvchanlik namunasi sifatida, nafaqat o‘z davrining, balki bugungi zamonning ham ma’naviy izlovchilari uchun ibrat manbai bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989.
2. Davlatshoh. Tazkira. Najotiy Lugal tarjimasi. – Istanbul. 1977. – B. 249.
3. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul, 1977. – B. 117–120.
4. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Fihi ma fihi Ahmad Avni Konuk tarjimasi. – Istanbul. 1994.
5. Sulton Valad. Ibtidonomha. Abdulboqi Gulpinorli tarjimasi. – Anqara. 1976.